

2026



"MAKTABGACHA TA'LIM - TARBIYA SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING
ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI" MAVZUSIDA RESPUBLIKA ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM
FAKULTETI
"MAKTABGACHA TA'LIM NAZARIYASI VA
METODIKASI" KAFEDRASI

RESPUBLIKA KONFERENSIYASI TO'PLAMI

2026



"MAKTABGACHA TA'LIM - TARBIYA SIFATI VA
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING
ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI"

MAVZUSIDA
RESPUBLIKA ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

2026 YIL 20-APREL



www.jdpu.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM FAKULTETI
“MAKTABGACHA TA’LIM NAZARIYASI VA METODIKASI”
KAFEDRASI

“MAKTABGACHA TA’LIM - TARBIYA SIFATI VA
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY
TENDENSIYALARI”

Respublika konferensiyasi to‘plami

II-TO‘PLAM

Jizzax-2026

UDK: 372
UDK: 372.2
BBK: 74.1

“Maktabgacha ta’lim - tarbiya sifati va samaradorligini oshirishning zamonaviy tendensiyalari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Jizzax, 2026.- 506 - bet.

KONFERENSIYA TASHKILY QO‘MITASI:

Tashkiliy qo‘mita raisi: p.f.d., prof., Yuldashev Maksudjon Abdullayevich

Tashkiliy qo‘mita kotibi: p.f.n., professor Meliboyev Anvar Rashidovich

TASHKILY QO‘MITA:

A.J.Jabborova – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, b.f.n., dotsent

Sh.A.Buranova – Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti dekani, p.f.f.n. (PhD), dotsent

X.A.Meliyev – Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrası, p.f.n., professor

M.Z.Akmalova – Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrası mudiri, p.f.f.n. (PhD), dotsent

G.E.Kushakova - Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrası, p.f.f.n. (PhD), professor

A.R.Meliboyev - Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrası, p.f.n., professor

M.S.Usmanova- Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrası, f.f.f.n. (PhD), dotsent

Tahririyat a‘zolari:

R.X.Bo‘ltakova – Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrası o‘qituvchisi

G.Z.Eshbekova - Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrası o‘qituvchisi

M.N.Mirazimova – Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrası o‘qituvchisi

A.I.Suyarova - Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrası o‘qituvchisi

M.Y.Zoirova - Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrası o‘qituvchisi

Mas’ul muharrir:

M.Z.Akmalova – Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrası mudiri, p.f.f.n. (PhD), dotsent

PEDAGOGIKA KOLLEJLARI O'QUVCHILARINING BILISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Ashirov Abdirashid Ravshanovich

E-mail: a-ashirov-75@mail.ru

Tel: 90-873-75-95

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogika kollejlari o'quvchilarining bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Bilish kompetensiyalarining tarkibiy qismlari, ularni shakllantirish va rivojlantirishning samarali usul hamda vositalari ko'rib chiqilgan. Interaktiv o'qitish texnologiyalari, muammoli ta'lim va loyiha asosidagi yondashuv metodlarining samaradorligi eksperimental tadqiqotlar asosida isbotlangan. Maqolada shuningdek bilish faoliyatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: bilish kompetensiyalari, pedagogika kolleji, interaktiv metodlar, muammoli ta'lim, loyiha texnologiyasi, o'quv faoliyati.

Аннотация: В данной статье рассматривается методика развития познавательных компетенций учащихся педагогических колледжей с научно-теоретической и практической точек зрения. Проанализированы компоненты познавательных компетенций, эффективные методы и средства их формирования и развития. На основе экспериментальных исследований доказана эффективность интерактивных технологий обучения, проблемного обучения и проектного подхода. Также предложены критерии и показатели оценки познавательной деятельности.

Ключевые слова: познавательные компетенции, педагогический колледж, интерактивные методы, проблемное обучение, проектная технология.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogika kollejlari muhim o'rin tutadi. Ular bo'lajak o'qituvchilarni, tarbiyachilarni va ta'lim sohasi mutaxassislarini tayyorlashda asosiy bo'g'in hisoblanadi. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim oldiga yangi talablar qo'yilmoqda. Bu talablar qatorida bilish kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ta'lim jarayonini kompetentsiyaviy yondashuv asosida qayta qurish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 11-apreldagi "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" nomli asarida ham ta'kidlanganidek, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish va ularning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish milliy taraqqiyotning poydevori hisoblanadi. Pedagogika kollejlari o'quvchilarining bilish kompetensiyalarini rivojlantirish nafaqat akademik bilimlarni o'zlashtirishni, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish, tanqidiy tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Shu boisdan ushbu muammo bugungi kunda pedagogika fani va amaliyoti uchun dolzarb hisoblanadi.

Bilish kompetensiyalari (kognitiv kompetensiyalar) nazariyasi G'arb pedagogik psixologiyasida B.Bloom, R.Marzano, J.Piaget, L.Vygotskiy kabi olimlarning asarlarida ishlab chiqilgan. B.Bloomning mashhur taksonomiyasi bilish jarayonini bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash kabi olti darajaga ajratadi. Bu taksonomiya hozirgi kunda ham o'quv maqsadlarini belgilashda va bilish kompetensiyalarini baholashda keng qo'llaniladi. O'zbek pedagogika fanida ushbu yo'nalishda N.Muslimov, A.Munavvarov, R.Mavlonova, M.Ochilov, H.Yo'ldoshev kabi olimlarning tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Ularning ishlarida kompetentsiyaviy yondashuvning nazariy asoslari, ta'lim jarayonini tashkil etishning innovatsion usullari va o'quvchilarning bilish faolligini oshirishning pedagogik shartlari yoritilgan.

Pedagogika kollejlari o'quvchilarining bilish kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud:

- An'anaviy o'qitish usullarining ustunligi, ya'ni reproduktiv xarakter
- O'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatga undashning yetarli darajada amalga oshirilmasiligi
- Bilish kompetensiyalarini baholashning aniq mezonlari va ko'rsatkichlari ishlab chiqilmaganligi
- Interaktiv va innovatsion o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning past darajasi
- Nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi bog'liqlikning yetarli ta'minlanmasligi

Bilish kompetensiyalari darajasini aniqlash maqsadida Bloom taksonomiyasiga asoslangan test topshiriqlari to'plami ishlab chiqildi. Baholash mezonlari sifatida quyidagi ko'rsatkichlar belgilandi: mustaqil fikrlash qobiliyati, tanqidiy tahlil, ijodiy yechim topish, bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash va meta-kognitiv ko'nikmalar.

Pedagogika kollejlari o'quvchilari uchun bilish kompetensiyalarining quyidagi tarkibiy modeli ishlab chiqildi. Ushbu model uch komponentdan iborat:

Kognitiv component - bu komponent o'quvchilarning bilimlarni egallash, tushunish va qo'llash qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Kognitiv komponentning asosiy tarkibiy qismlari:

- Analitik fikrlash: ma'lumotlarni ajratish, tahlil qilish va sintez qilish
- Kontseptual tushunish: mavhum tushunchalar bilan ishlash qobiliyati
- Muammoni hal etish: algoritmik va evristik yondashuv
- Transfer qilish: bilimlarni yangi kontekstlarda qo'llash

Metakognitiv component – bu komponent o'quvchilarning o'z bilish jarayonini anglash va boshqarish qobiliyatini ifodalaydi:

- O'z-o'zini monitoring qilish: o'quv jarayonini nazorat ostida ushlab turish
- Refleksiya: o'tilgan yo'lni tahlil qilish va xulosalar chiqarish
- Maqsad qo'yish va rejalashtirish: o'z bilish faoliyatini rejalashtira olish
- Strategik fikrlash: eng samarali bilish strategiyasini tanlay olish

Motivatsion-irodaviy component - bu komponent bilish jarayoniga nisbatan ichki munosabat va iroda sifatlarini ifodalaydi:

- Bilishga qiziqish: yangi bilimlarni egallashga intilish
- Intellektual qiyinchiliklarga chidamlilik: murakkab vazifalardan qochmaslik
- Mustaqillik: tashqi yordam talab etmasdan ishlash istagi
- Ijodkorlik: standart bo'lmagan yechimlar izlash

Muammoli ta'lim o'quvchilarning bilish faolligini oshirishda eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyaning asosiy g'oyasi o'quvchilarga tayyor bilimlar berish o'rniga, ularni muammoli vaziyatlarga olib kirish va mustaqil yechim izlashga undashdir. Muammoli ta'limni tashkil etishning asosiy bosqichlari: Muammoli vaziyatni yaratish (o'qituvchi tomonidan); Muammoni anglash va qabul qilish (o'quvchi tomonidan); Gipotezalar ilgari surish; Gipotezalarni tekshirish va yechim toppish; Xulosalar chiqarish va refleksiya.

Loyiha asosidagi ta'lim (project-based learning) o'quvchilarning real hayotiy muammolarga yechim topishga yo'naltirilgan kompleks faoliyat sifatida bilish kompetensiyalarini yaxlit tarzda rivojlantiradi. Pedagogika kollejlarda loyiha ishlarini tashkil etish uchun uch toifadagi loyihalar samarali bo'ldi: Tadqiqot loyihalari: ilmiy usullar bilan ma'lumot yig'ish va tahlil qilish. Ijodiy loyihalar: pedagogik materiallar, o'yinlar va ko'rgazmali qurollar yaratish. Ijtimoiy loyihalar: mahalla yoki maktablarda amaliy pedagogik tadbirlar o'tkazish va boshqalar.

Kooperativ o'qitish strategiyalari ("Fikrlash-Juftlikda ishlash-Bo'lishish", "Aylana jadval", "Ekspert guruhlari") o'quvchilarning bir-biridan o'rganishi va jamoada fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Raqamli va interaktiv texnologiyalar - zamonaviy raqamli texnologiyalar bilish kompetensiyalarini rivojlantirishning kuchli vositasi hisoblanadi.

Pedagogika kollejlari o'quvchilarning bilish kompetensiyalarini rivojlantirishda an'anaviy metodlardan farqli ravishda muammoli ta'lim, loyiha texnologiyasi, kooperativ

o'qitish va raqamli vositalarni mujassamlashtirgan kompleks metodika ancha samaraliroqdir. Natijalar G.Jonassen, J.Bransford va R.Marzanoning tadqiqotlari bilan hamohangdir. Ayniqsa e'tiborga loyiq natija shundan iboratki, metakognitiv ko'nikmalar (o'z bilish jarayonini anglash va boshqarish) bo'yicha tajriba guruhida eng yuqori o'sish kuzatildi. Bu holat o'quvchilarga o'z o'quv jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash imkoniyati berilganda ularning bilish kompetensiyalari jadal rivojlanishini tasdiqlaydi.

Maqola mazmunidan quyidagi xulosalar chiqarildi: Bilish kompetensiyalarini rivojlantirish kognitiv, metakognitiv va motivatsion-irodaviy komponentlarni o'z ichiga olgan yaxlit jarayon sifatida tashkil etilishi zarur. Muammoli ta'lim va loyiha texnologiyasi an'anaviy metodlarga nisbatan o'quvchilarning bilish kompetensiyalarini rivojlantirishda qo'llanilgan metodlar samaraliroq ekanligini tasdiqlandi. Raqamli texnologiyalarni maqsadli qo'llash bilish jarayonining sifatini oshiradi va o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi. O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi va kreativligi o'quvchilar bilish kompetensiyalarini rivojlantirishning hal qiluvchi omili hisoblanadi. Bilish kompetensiyalarini baholashda summativ baholashdan formativ baholashga o'tish zaruriyati eksperimental tarzda asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. M. M. Axmetjanov, U. A. Urinov, Sh. S. Sharipova "Kasbiy ta'lim metodikasi" darslik Buxoro "Durdona" 2020-yil 496 bet.
2. G. O. Ochilova «Kasbiy kompetentlik» o'quv qo'llanma T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2021-yil 228 bet
3. M. M. Axmetjanov, U. A. Urinov, Sh. S. Sharipova "Kasbiy ta'lim metodikasi" darslik Buxoro "Durdona" 2020-yil 496 bet.
4. I. M. Sirojiddinova "Kasbiy ta'lim metodikasi" o'quv qo'llanma Andijon "Noshirlik" 2021-yil 220 bet.
5. M. T. Axmedova "Pedagogik kompetentlik" uslubiy qo'llanma -T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti 2018-yil 80 bet.
6. D. Elmuratova, N. Misirova "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" o'quv qo'llanma "Guliston" 2021-yil 161 bet.
7. M. H. Muslimov, N. A. Usmonboyev, D. M. Sayfurov, A. B. To'rayev "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" T.: 2015-yil 120 bet.

5–7 YOSHLI BOLALARDA O'YINLAR YORDAMIDA MULOQOT NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Qo'qon Universiteti Ta'lim fakulteti, maktabgacha ta'lim yo'nalishi
3-kurs talabasi Ashurmatova Zarnigor G'ayrat qizi
Qo'qon universiteti "Filologiya" kafedrasi o'qituvchisi
Yakubova Guzalkhon Mahmudovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada 5–7 yoshli bolalarda muloqot nutqini rivojlantirishda o'yin faoliyatining pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Maktabgacha yosh davri nutq rivojining eng muhim bosqichi bo'lib, aynan shu davrda bola ijtimoiy muhit bilan faol muloqotga kirishadi. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat va amaliy mashg'ulot metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'yin asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarda dialogik va monologik nutqni rivojlantirish, lug'at boyligini oshirish hamda erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Maqolada rolli, didaktik va harakatli o'yinlarning nutq rivojiga ta'siri asoslab beriladi hamda pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.